



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKUL'TETI

“MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

**“Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi“ yo'nalishi 403-guruh
talabasi Mamajonov Farxod**

REFERAT

MAVZU: Milliy tiklanish sharoitida urf-odatlarining tiklanishi.



Ilmiy rahbar:_____U.Nigmanova

Kafedra mudiri_____ M.Sobirova

Toshkent-2014

REJA:

KIRISH

I.BOB. MILLIY TIKLANISH SHAROITIDA URF-ODATLARNING TIKLANISHI

1.1. Milliy g'oya va ma'naviy kadriyatlarning uzviy bog'liqligi

1.2. Milliy qadriyatlar ularning umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi va milliy ma'naviy tiklanish jarayoniga ta'siri

1.3. Milliy tiklanishda milliy bayramlar va marosimlarning o'rni

II.BOB. MILLIY QADRIYATLAR MILLIY G'OYANING MA'NAVIY NEGIZI

2.1. Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi

2.2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi

2.3. Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko'rinishlari

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. «Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Muayyan millat vakglllari uchun zarur va aqamiyatli, aziz va ardokli bo'lgan, manfaati va maksadlariga xizmat kiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, yeoyalar va me'yorlar milliy ma'naviy Kadriyatlardir.*

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddanavlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va Qadrini yo'qotmagan, shu xalqning *iftixor manbaiga* aylangan durdonalardir. Masalan, qirgaz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urfodat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakx kur tarzi, orzuumidlari va ideallari, vijdoni va ornomusi aks etadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'lanishlar bugungi kunda yangi mazmun kasb etmoqda, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada kishilar o'rtasidagi birlik va birdamlik, tenglik va teng huquqlilik, insonparvarlik, rahm-shavqat, mehr-muruvvat, adolatparvarlik, baynalmilallik singari qadriyatlarning o'rne ayniqsa kattadir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va xolisona o'rganish millatlararo totuvlikni ta'minlash jarayonini tezlashtiradi.

Bir vaqtning o'zida faqat milliy qadriyatlar manfaatlari bilangina bir tomonlama, ya'ni sinfiy xarakterda cheklanib qolsak, materialistik dialektika metodologiyasiga zid ravishda ish tutgan bo'lamiz. Ayni bir vaqtda dialektikani e'tibordan soqit qilish ba'zi tadqiqotchilarga pand berdi, yagonalik, alohidalik va umumiylik kategoriyalari asosida baho berishda bir tomondan boshqa tomonga sapchishga, haddan oshishlarga imkon yaratib berdi.

Ong odatda turmushdan orqada qoladi. Ongning bir qismi bo'lmish tafakkur esa doimo ham voqelikning rivojlanishi bilan bir safda borishga ulguravermaydi. Bunday hol tafakkurni aqidaparastlikning qolipiga joylashtirishga harakat qilinganda yuz beradi. Ayni shu sababli umuminsoniy va milliy jihatlarning dialektikasi to'g'risidagi ta'limot namoyandalarining ko'pchiligi nohaq unutilgan, noto'g'ri baholangan yoki ongli ravishda tilga olinmay kelingan. Endilikda bu jihatlarning o'zaro aloqadorligini ham huquqiy, ham insoniy tomondan tiklash zarur. Bu avvalo, mamlakatimizning insonparvarlik mohiyatini, umumjahon xalqlarining o'zaro foydali manfaatlarini ifodalagan bo'lur edi.

Mavzuning maqsadi. Milliy tiklanish sharoitida urf-odatlarning tiklanishi mustaqillik yillaridagi eng muhim omil ekanligini yoritib berish. Milliy tiklanishda milliy bayramlar va marosimlarning, urf-odat, an'analarni qaytadan tiklanganligini e'tirof etish. O'zbekiston istiqlolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy, fundamental konseptsiyasi ishlab chiqilganligini yoritish berish.

Mavzuning vazifasi. Hozirgi davrdagi jarayonlarni tadqiq qilishda yangicha tafakkur- ni izchillik bilan qo'llash dunyoning chinakam ilmiy manzarasini yaratishga, uning davlatlar, siyosiy va jamoat tashkilotlarining o'zaro ijobiy, bunyodkorona hamkorligini yo'lga qo'yishga yordam beradi. Biz endilikda inson zotining mushtarakligini anglab, eski andozalardan asta-sekin xalos bo'lyapmiz, yangicha tafakkurda nafaqat tafovut, ixtiloflarni, balki yangicha hayot uchun g'oyat zarur bo'lgan tajribaning juda boy manbaini ham topmoqdamiz. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirish hukumatlar, siyosiy kuchlar, barcha ijtimoiy guruhlar va jamoalardan o'z manfaatlari va faoliyatlarini xalqaro munosabatlarga insonparvarlik ruhini singdirish yo'li bilan qaratishni taqozo etadi.

XX asrning ikkinchi yarmigacha tarixiy voqelik o'zida yaxlit narsa sifatida tamaddunni, o'z-o'zini inkor etish imkoniyatiga ega emas edi, insoniyatga mangu mavjudot sifatida qaralar va uning o'zini saqlash to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'tkir ehtiyoj yo'q edi. Endi umumiylikdan xususiylikka sari - aks ta'sir aloqa ham yuzaga keldi: individlar hayotini qo'llab-quvvatlash va takror hosil qilish butun kishilik zotini saqlab qolishga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. SHu sababli uning omon qolishi to'g'risidagi g'amxo'rlik ob'ektiv ravishda kishilik borlig'ining o'z jisman mavjudligini saqlab qolish

vositalariga bo'lgan azaliy ehtiyojlari singari ana shunday eng birinchi zaruriyatga aylandi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligini anglash jahon hamjamiya ti oldida ularning ro'yobga chiqarilishini kafolatlovchi mexanizmni ishlab chiqish muammosini qo'ydi. Fikrimizcha, milliy qadriyatlarni umumjahon qadriyatlari darajasiga chiqarishda xalqaro faoliyatning davlatlar o'zaro munosabatlari butun kompleksidan kelib chiqadigan eng muhim negizlariga tayanish kerak. O'z xavfsizligini boshqalar xavfsizligi hisobiga ta'minlashning, o'z manfaatlarini boshqalar manfaatlariga ziyon yetkazish hisobidan himoya qilishning mumkin emasligidan kelib chiqish kerak. Har bir xalqning tiklanish erkinligini tan olish yangi jahon tartibidagi asosiy jihatdir.

I.BOB. MILLIY TIKLANISH SHAROITIDA URF-ODATLARNING TIKLANISHI

1.1. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning uzviy bog'liqligi

Har qanday ijtimoiy hodisaning, shu jumladan, milliy g'oyani va milliy ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish uchun quyidagilarga aniqlik kiritish: tushunchaning ta'rifi (definisiyasi); tushunchaning tavsifi (xarakteristikasi); milliy ma'naviy qadriyatlarning mazmuni; ularning kelib chiqishi va rivojlanishi (evolyutsiyasi); ijtimoiy maqsadi va vazifalari (funktsiyalari); tuzilishi (strukturasi); amal qilish usul va vositalari (texnologiyasi); shakllari va ko'rinishlari tasnifi (klassifikatsiyasi) va nihoyat, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ta'sirini bilish lozim.

«Qadriyat» tushunchasi — juda keng tushuncha. Uning bir qismi — ma'naviy qadriyatlardir. Milliy ma'naviy qadriyatlar «milliylik», «ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

«Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Muayyan millat vakillari uchun zarur va aqamiyatli, aziz va ardokli bo'lgan, manfaati va maksadlariga xizmat kiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, yeoyalar va me'yorlar milliy ma'naviy Qadriyatlardir.*

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddanavlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va Qadrini yo'qotmagan, shu xalqning *iftixor manbaiga* aylangan durdonalardir. Masalan, qirgiz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urfodat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakx kur tarzi, orzuumidlari va ideallari, vijdoni va ornomusi aks etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasmrusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Milliy G'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

birinchidan, milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi;

uchinchidan, milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezoni bo'lib maydonga chiqadi.

Yuksak ma'naviyat — kelajak poydevori.

Islom Karimov

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya — jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir.

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

O'zbekiston istiqlolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiynazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ayni paytda, buyuk kelajakni yaratish yo'lida xalqni birlashtirib, yakdil qila oladigan, bunyodkorlik ishlariga safarbar etib, ruhiy tayanch bo'la oladigan milliy

g'oyani shakllantirish muammosi yurtboshimiz Islom Karimovning diqqat nazaridan bir daqiqa ham chetda qolmadi.

«O'zining eqqayotini, oldiga ko'ygan maksadlarini anik tasavvur kiladigan, o'z kelajagi xakida kaeuradigan millat xech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi»¹.

Islom Karimov

1.2. Milliy qadriyatlar ularning umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi va milliy ma'naviy tiklanish jarayoniga ta'siri

Milliy ma'naviy tiklanish jarayonida milliy qadriyatlar katta ahamiyatga egadir. Har bir millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar asrlar mobaynida shakllantirib kelindi va millat hayotining ajralmas qismiga aylanib bordi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviyatimizni asosini tashkil etgan barcha omillarni o'z ichiga olgan bo'lib Sobiq Sovet tuzumi davrida milliy qadriyatlarga bo'lgan noo'rin munosabat vaqtlar o'tib uni tiklash yanada boyitishni tarixiy zaruriyatga aylantirib qo'ydi. Mustaqillik yillarida amalga oshirib borilayotgan milliy tiklanish jarayoni milliy qadriyatlarni ham hayotga qaytarish imkoniyatini yaratib berdi. Milliy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi milliy ma'naviy tiklanish jarayonini hayotga kengroq tarzda amalga oshirilib borishiga xizmat qiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uzviyligisiz u milliy ma'naviy tiklanish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsata olmaydi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi ayni vaqtda milliy qadriyatlarni mustahkamlab, ularga yangi olamshumul va milliy realliklarga javob beradigan shakllar berish zarurligini taqozo etadi. Taraqqiyparvar kuchlar o'z mamlakatlaridagi milliy manfaatlar va qadriyatlarni dunyodagi o'sib borayotgan qiziqishlar bilan o'zaro bog'lashga harakat qilmoqdalar.

Barcha jahon olimlari hozirgi umumbashariy muammolarni umuminsoniy maqsadlardan kelib chiqib hal etmasdan turib, o'z milliy kelajaklarini dunyo bo'yicha mushtarak xavf-xatarlardan qurolli ixtilof, ekologik falokatlar, qashshoqlik va ocharchilikdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy yagonalashuvdan, moddiy va ma'naviy meroslar halokatidan qutqarib qolishi mumkin emas, degan xulosaga keldilar.

Dunyo xalqlari umumiy insonparvarlik qadriyatlarini va hamma uchun yagona bo'lgan shaxs huquqlarini hurmat qilishni qabul qilmaganlariga qadar ular oldida, butun hamjamiyat oldida turgan muammolarning birortasi

ham muvaffaqiyatli hal etilishi, xalqaro **xavfsizlikning** ham mustahkam himoya qilinishi mumkin emas.

Dunyoning barcha tinchliksevar davlatlari singari mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan siyosat xalqimizning o'tmishdan shakllanib kelgan insonparvarlik qadriyatlariga suyanadi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi shu qadar qat'iyki, ular bir-biri bilan shunchalik mustahkam «chatishib» ketganki, ularning loaqal birortasining «tushib» qolishi butun zanjirning uzilishiga olib kelishi mumkin. Butun insoniyatga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazishga qodir, tor ma'noda tushuniladigan milliy qadriyatlarning torozi pallasini bosib ketishi tufayli og'ish sodir bo'lmasligi uchun buni doim esda tutish lozim.

Hozir yagona jahon yaxlitligi doirasida mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasida o'zaro ta'sir, birgalikda faoliyat ko'rsatish va yonma-yon suyanib rivojlanish qonunlarining ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Bu esa kishilik jamiyatining tarixan belgilanib qolgan turmushini tubdan o'zgartirish qonuniyatlarini bir qadar tezlashtirib yubordi. CHunonchi, «uchinchi dunyo» davlatlari jahon xalqlarining ijtimoiy tajribasi va texnikaviy vositalarini o'zlashtirib, rivojlanishning an'anaviy tiplaridan jiddiy farq qiluvchi yangi tipini shakllantirmokda.

Boshqacha aytganda, hozirgi dunyoda ijtimoiy tabaqalarni, ularning «sof ko'rinishida», bir-birlaridan ajralgan holda chinakamiga ilmiy, har tomonlama, dialektik tasavvur qilish qiyin hamda samarasizdir. Jahon tamaddunining rivojlanish yo'lini shunchaki oddiy hol deb qabul kilmaslik kerak. Ko'p ukkladli mamlakatlarni yaxlit jahon taraqqiyotining butun xilma-xilligida bilib olish, tadqiq kilish, o'zlashtirish, tamaddun singari kategoriyalarning mohiyatini anglab yetish, insoniyatning olg'a borishida «ma'rifatli» va «farmatsion» jihatlarining o'zaro aloqadorligini aniqlash lozim bo'ladi. Rivojlanish omilining ahamiyatga molikligini shubha ostiga olmasdan, biz nazariyada ham, amaliyotda ham dunyoda qarama-qarshiliklarning mavjudligi uning yaxlitligidan qolishmaydigan darajada realligiga tegishli e'tibor bermasligimiz mumkin emas. Milliy xudbinlik har qanday birikuv, qo'shiluv va murosani istisno etadi, binobarin, olg'a qarab harakat qilishning yo'liga g'ov qo'yadi. Dunyoning yaxlitligi g'oyasi turli ijtimoiy tuzumli davlatlarning hamkorligisiz amalga oshishi mumkin emas.

Har bir xalq o'z milliy manfaatlarini, milliy qadriyatlarini e'tiborga olish bilan bir qatorda boshqa davlatlarning manfaatlarini hurmat qilishi kerak. Zero, haqiqatan tinchlik, yaxshi qo'shnichilik, har tomonlama hamkorlik, o'zaro ishonch nafaqat omon qolish, balki ko'pgina ijtimoiy vazifalarni hal etishga, insonlarning siyosiy huquqlarini, milliy va ma'naviy boyliklari va meroslarini saqlash orqali - umummilliy qadriyatlarni ta'min- lash hamdir. SHu bilan birga, dunyoda ayrim mamlakatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, partiyalar, davlatlar va ular tartibotlarining o'ziga xos vazifalari real muammolar bo'lib qolaveradi. Jahonshumul muammolarni hal qilishning shoshilinchli- gini inkor etish, ularning umuminsoniy manfaatlarini yanada ta'sirchan himoya qilishga intilishi bilan belgilanuvchi taraqqiyparvar harakatlarning obro'si, ta'sirini oshirish imkoniyatlariga e'tibor bermaslik mulohazasiz ish tutish bo'lur edi. SHu sababli bunda shoshilish, hamma narsani o'ylamay-netmay hal qilish mumkin emas.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro munosabatini dialektik tushunish mamlakat ichida ham, jahon maydonida ham samarali ta'sirchan siyosatni, iqtisodiyot va madaniyatni yaratish juda katta ahamiyatga ega. Darvoqe, faoliyatning istalgan sohasi uchun davlatlar hamjamiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida payqash va hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davrdagi jarayonlarni tadqiq qilishda yangicha tafakkur- ni izchillik bilan qo'llash dunyoning chinakam ilmiy manzarasini yaratishga, uning davlatlar, siyosiy va jamoat tashkilotlarining o'zaro ijobiy, bunyodkorona hamkorligini yo'lga qo'yishga yordam beradi. Biz endilikda inson zotining mushtarakligini anglab, eski andozalardan asta-sekin xalos bo'lyapmiz, yangicha tafakkurda nafaqat tafovut, ixtiloflarni, balki yangicha hayot uchun g'oyat zarur bo'lgan tajribaning juda boy manbaini ham topmoqdamiz. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirish hukumatlar, siyosiy kuchlar, barcha ijtimoiy guruhlar va jamoalardan o'z manfaatleri va faoliyatlarini xalqaro munosabatlarga insonparvarlik ruhini singdirish yo'li bilan qaratishni taqozo etadi.

XX asrning ikkinchi yarmigacha tarixiy voqelik o'zida yaxlit narsa sifatida tamaddunni, o'z-o'zini inkor etish imkoniyatiga ega emas edi, insoniyatga mangu mavjudot sifatida qaralar va uning o'zini saqlash to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'tkir ehtiyoj yo'q edi. Endi umumiylikdan xususiylikka sari - aks ta'sir aloqa ham yuzaga keldi: individlar hayotini qo'llab-quvvatlash va

takror hosil qilish butun kishilik zotini saqlab qolishga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. SHu sababli uning omon qolishi to'g'risidagi g'amxo'rlik ob'ektiv ravishda kishilik borlig'ining o'z jisman mavjudligini saqlab qolish vositalariga bo'lgan azaliy ehtiyojlari singari ana shunday eng birinchi zaruriyatga aylandi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligini anglash jahon hamjamiya ti oldida ularning ro'yobga chiqarilishini kafolatlovchi mexanizmni ishlab chiqish muammosini qo'ydi. Fikrimizcha, milliy qadriyatlarni umumjahon qadriyatlari darajasiga chiqarishda xalqaro faoliyatning davlatlar o'zaro munosabatlari butun kompleksidan kelib chiqadigan eng muhim negizlariga tayanish kerak. O'z xavfsizligini boshqalar xavfsizligi hisobiga ta'minlashning, o'z manfaatlarini boshqalar manfaatlariga ziyon yetkazish hisobidan himoya qilishning mumkin emasligidan kelib chiqish kerak. Har bir xalqning tiklanish erkinligini tan olish yangi jahon tartibidagi asosiy jihatdir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganini jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshayotgan jarayonlarda yaqqol ko'rish mumkin. Ayni vaqtda mamlakatimiz jahon hamjamiyati bilan yaqin munosabatlarni kuchaytirishga, eng dolzarb muammolarni birgalikda hal etishga katta e'tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat hayotini demokratiyalashtirish va modernizatsiyalashga, millatlararo totuvlikni ta'minlashga katta e'tibor berilayotganligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Bu esa O'zbekiston taraqqiyotining muhim jihatlaridir.

1.3. Milliy tiklanishda milliy bayramlar va marosimlarning o'rni.

Qadimdan O'rta Osiyo xalqlarining suvga bo'lgan e'tiqodi baland bo'lgan. Beruniy uzining "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida suvga baqishlangan odatlar, qayitlar haqida ko'p to'xtalgan. Bunday odatlarning biri - bahor-yoz bayramlarida odamlar bu yil suvli, hosildor bo'lsin deb, bir-birlariga suv sepishganlar. Beruniy qadimgi "Navro'z" odatlarining biri haqida shunday deb yozadi: "Odamlar shu kuni tong paytida o'rinlaridan turib kanal va qovuzlarga boradilar. Ko'pincha oqib turgan suvlarga ro'para turib, barakali bo'lish va ofatlarni daf etish uchun ustilaridan suv quyadilar". O'zbekiston territoriyasining lalmikor (faqat yomqir suvi bilan suqoriladigan) joylarida hatto suv sepish odati asosida qadimda maxsus uyushtiriladigan "Suv xotin ("Sust xotin") marosimi ham shakllangan. Bu marosim bahor-yoz oylari yomqir yoqmay, ekinzorlar qovjirab, qurqoqchilik boshlanganda, "yomqir chaqirish" maqsadida tashkil qilingan. Oqsoqollarning ko'rsatmasiga binoan qishloq ayollari katta qo'qirchoq yasashib, unga qari kampirning ko'ylagini kiydirishgan, so'ngra maxsus qo'shiqlar aytishib,

qo'qirchoqni dalalardan, ko'chalardan ko'tarib o'tib, qar bir xonadonga olib kirishgan. Marosim qatnashchilari "Suv xotin" qo'shiqini aytib, uylarga kirishganda uy egalari ularni xursandchilik bilan qarshilib, albatta qo'qirchoq ustidan suv sepishgan, o'z imkoni doirasida qayr-ehson qilishgan .

Suvga bag'ishlangan qadimiy odatlardan yana biri esa hatto bayram darajasigacha ko'tarilgan. U yozning maxsus kunlari odamlarning daryo va suv havzalariga borib cho'milishi vaqtida vujudga kelgan. Bahor va yozda O'rta Osiyoning iqlim sharoitida suvga ehtiyoj kuchli bo'lgani uchun suvga baqishlangan turli odat, bayramlarni paydo bo'lishi tabiiydir. Bayramlar, har bir fasl tabiati xususiyatini aks ettirishdan tashqari, asosan inson faoliyatini madh etishga qaratilgan. Islomgacha bo'lgan kuzgi bayramlarning ikkitasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ularning biri -"Tirgon" ("yoki "ro'zi tir") dir. Beruniy "tir" so'zining ma'nosini "dahufaz-lik" va "dehqonchilik" bilan boqlaydi. Bu haqda shunday deb yozadi: "Dahufazlik"- buning mao'nosi dunyoni saqlash, uni qo'riqlash va dunyoda hukmdor bo'lish, yana "dehqonchilik"- buning ma'nosi dunyoni obod etish, ekin ekish va dunyoni taqsim etish - ikkisi egizak bo'lib, dunyo shular bilan obod va doimo barqaror bo'ladi, uning buzugligi tuzaladi". "Tirgon" katta bayram bo'lib, o'sha kuni barcha kotiblar va deqqonlar yangi kiyim kiyib yurishgan. Bu bayramda buqdoy va mevalardan maxsus taom tayyorlanib, dasturxonlarga tortilgan. Bazi joylarda esa shu kuni cho'milish odati bo'lgan. "Tirgon"ning mazmuni va odatlariga ko'ra u "kuz boshi"da yiqim-terim boshlanishidan oldin o'tkaziladigan bayramga o'xshaydi.

Kuz mavsumida nishonlanadigan katta bayramlardan yana biri "Mehrjon" (yoki "Mehrgoq", Xorazmda-"CHiri- ruj", suqdiylarda-"Nim-sarda") bo'lgan."Mehrjon" so'zining tavsifi - birinchisi "jon sevgisi", ikkinchisi - "quyosh".demakdir. "Navro'z" kuni tabiatda jonlanish boshlansa, "Mehrjon" kuni o'suvchi narsalarning (etilishi - U. q.) chegarasiga yetib, o'sish modda-larining undan uzilishi va hayvonlarni nasllanishdan to'xtalishi..." sodir bo'lgan. "Mehrjon" bayramidan so'ng odamlar qishga tayyorgarlik ko'ra boshlaganlar. "Xuroson podshoqliklarida shu kuni otliq askarlarga: kuzlik va qishlik kiyim berish rasm bo'ldi".Sugdiylar ham bunday bayramni keng nishonlashgan. Faqat bayramning birinchi kunini "yil yarmi" ma'nosida "nim sarda" deb ataganlar.. Ikkinchi kun qayit bo'lib, uni "M-n-i-d-xvo-ra" deb atagalgan. Bu kun odamlar "otashxonalarga yiqilib, qo'noq uni, yoq va shakardan tayyorlangan ovqat yeydilar". Xorazmliklar esa Umri oyining 12-kuni bu bayramni "CHiri-ruj"-nomi bilan nishonlaganlar .Miloddan avvalgi davrlarda uzum-mevalar pishgan paytda O'zbekiston territoriyasida (qadimgi yunonlarda "Dionis"ga o'xshash) maqalliy bayramlar o'tkazilgan."Dionis" yoki "Vakxix" bayramlari O'rta Osiyoga Aleksandr Makedonskiy (Iskandar) istilosi bilan kirib kelgan, deb taxmin qilish mumkin. Lekin, akademik S. P. Tolstov va boshqa tadqiqotchilarning ma'lumotlari hamda Xorazm, Kattaqo'rqon va Termiz atroflarida topilgan arxeologik manbalarga qaraganda, joylarda uzumchilikka baqishlangan bayram qadimdan bo'lganligi qaqida mao'lumot bor.

Beruniy bergan ma'lumotlarga qaraganda esa, suqdiylarning Ashixida oyining 18-kuni "Bobaxvara" ("Bomixvora") nomli qayit bo'lib, uning ma'nosi, uzumdan siqib olingan xolis shirani ichishdir". SHu oyning 26-kuni "Garm-Xvara"- uzum yeyish qayiti bo'lgan. Yettinchi oyning 15-kuni yana uzumga baqishlangan ko'p kunli bayram boshlanib, u navbatdagi oyning 9-kuni yakunlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, boqdorchilik keng tarqalgan suqdiylarda uzumga va uzum sharbatidan tayyorlangan musallasga baqishlangan butun bir sistemali qayitlar bo'lgan. Kech kuz, qish va erta baqorda uyushtiriladigan barcha bayram va marosimlarda olov yoki gulxan yoqish mavjud bo'lgan. Zardushtiyliklar qayit yoki marosimlarini o'tkazish uchun doimo o't yonib turadigan "otashxona"larga yiqilishgan. Masalan, Novsard oyining 28-kuni Buxoro majusiylarining "Romush oqom" nomli qayitida odamlar otashxonalarga to'planishgan va qayitni yonib turgan gulxan atrofida nishonlashgan. Zardushtiylikning eng yirik bayramlaridan biri Sada bo'lgan. "Sada" olovning kashf etilishiga baqishlangan bayram qisoblangan. "Sada" eron quyosh kalendarining 11-oy, baxmanning 10-kunida bayram qilingan. Firdavsiyning "SHoqnoma" kitobida "Sada" bayramiga asos solingani qaqida maxsus bob bor .

Islomgacha bo'lgan davrda diqqatga sazovor va qiziqarli bayramlar ko'p bo'lgan. Ulardan biri ayollar bayrami. Bu bayram isfandormo'z oyining 5-kuni nishonlanib "ro'zi isfandarmo'z" deb atalgan. Isfandormo'z so'zining mao'nosi "aql" va "muloqaza" demakdir ("Isfandar-mo'z" yerga qamda soliq, nomusli, yaxshi ishlar qiluvchi va eriga muqabbatli xotinga vakil qilingan farishtaning nomi qamdir).Hozirgi kun uchun qiziqarli va kerakli bayramlardan biri - bu Murod oyining 7-kuni o'tkaziladigan -"Murdodangan" qayiti bo'lib, u o'ziga xos tinchlik bayrami qisoblangan. Beruniyning fikricha, bu bayramning luqaviy mao'nosi "o'limsiz - mangu qayot" demakdir. Islomgacha bo'lgan bayramlar o'sha davrning o'ziga xos qonuniyatlari va ijtimoiy xususiyatlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ularni chuqurroq tushunish uchun qar biriga o'sha davr nuqtai nazaridan yondashish kerak. Islomgacha bo'lgan qadimgi rang-barang bayramlarning qimmatini va afzalliklaridan biri shunda ediki, ularni xukmdor sinflar o'ylab topgan emas, balki tabiiy ehtiyojlar zaminida paydo bo'lgan. SHu boisdan qam ular tabiat bilan uzviy boqliq va qar biri mehnat jarayoni qamda turmushning muqim

Islomgacha bo'lgan davr O'rta Osiyo xalqlarida koinot, tabiat, yil fasllari bilan bevosita boqliq bo'lgan muayyan sistemadagi - bayram - qayitlar bo'lgan. 7-8 asrdagi o'zbek xalqi bayramlarining rivojlanishi arablarning O'rta Osiyoga qilgan istilochilik yurishlari bilan chambarchas boqliq. Arablarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini ikki davrga bo'lish mumkin: birinchi davr 650-705 yillar, ikkinchi davr 705-715 yillar . Arablar istilochilik yurishlari birga O'rta Osiyo hududiga o'z urf odatlarini ham olib kirganlar.

Islomda asosan ikkita rasmiy diniy bayram mavjud: Katta bayram "qurbon qayit" (arabcha nomi - "iyd al kabir", "iyd al-adqo") yetti kun, qozir uch kun - qijriy zul-qijja oyining 10-13-kunlarida va kichik bayram - "ro'za qayit" (arabcha nomi "iyd as-saqir", "iyd al-fitr") qam uch kun - shavval oyining. 1-3-kunlarida

nishonlangan. Bu bayramlarning asosiy diniy yo'nalishida - nomozgoqda ertalab nomoz o'qish, o'lganlarni yod etib xudoyi, duo-fotiqa qilishlardan iborat. qurbon qayitida qaj va qurbonlik, qilish, ro'za qayitida esa ramazon oyi niqoyasida "oqiz ochish" marosimi, fitr-sadaqa berish kabi xususiy unsurlar bo'lgan. Islomda keyinroq yana bir bayram - mavlid (mavlid an-nabiy)-Muqammad: payqambarning tuqilgan kuni (rabi ul-avval oyining 12-kuni) nishonlana boshlangan. Mavlid kuni duolar, payqambar shao'niga madqiyalar aytiladi, diniy sheo'rlar o'qiladi, dindorlar yiqinlari uyushtiriladi, sadaqalar beriladi. Islom dini bayramiga maqalliy xalqlarning odatlari qam qo'shilib, ularni boyitgan. Masalan arafa kuni qo'shnilarga osh ulashish, "qayitlik" berish, yaxshi maxsus libos - kiyimlar kiyish, yaqinlar, qariya, kasal, nochorlardan xabar olish, o'sha kunlar ishlamasdan dam olish, sayil qilish kabi odatlar islom bayramlarining tarkibiy qismlariga aylanib ketgan.

Masjidlari o'rta Osiyo feodal shaqarlarining muqim tarkibiy qismi bo'lib, ular "qurbon qayit", "Ramazon" (iyd-al-fitr) bayramlari va musulmon ano'analarini o'tkazishda diniy markaz vazifasini o'tagan. Bu masjidning moqiyati bir xil bo'lsada, ular qar joyda turlicha nomlangan: "Nomozgoh" (nomoz o'qish joyi), "Musalla al-iyd" (bayram kuni nomoz o'qish joyi), "Iydgoh" (bayram o'tkazish joyi) va hokazo. Ularning asosiy maqsadi - xalqni musulmon dini asosida birlashtirish bo'lib, bu joylarda majlis, nomoz va qurbonlik kabi diniy anjumanlar uyushtirilgan. Lekin ba'zi vaqtlarda shohlar va hukmdorlar xalqqa o'z olijanobligini ko'rsatish uchun bu yerda katta ziyofatlar qam berishgan.

Dunyodagi barcha xalqlarning, jumladan, O'rta Osiyo xalqlarining an'ana va bayramlari ularning kundalik mehnati, turmush sharoiti, madaniyati va shuningdek, yashayotgan iqlim sharoitiga xos xususiyatlar asosida shakllanib qamda rivojlanib borgan. Deyarli barcha xalqlarda meqnat mavsumi va qar bir faslga mos, yao'ni erta baqorda - meqnat mavsumiga kirishdan oldin, yozda - hosilni yiqishtirishdan oldin, kuzda - hosil to'plangandan so'ng va qishda, ayniqsa, dalalar uyquga ketgan vaqtda uyushtiriladigan mavsumiy marosim va bayramlar mavjud bo'lgan va ular zamonga mos o'zgarib borgan. Bu qodisaning o'rta asrlarda qozirgi o'zbekiston territoriyasida yashovchi aholining yil fasllari va meqnat jarayoni bilan boqliq bo'lgan mavsumiy ("kalendar") bayramlari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Bahor bayramlari yangi meqnat mavsumi boshlanishidan darak beruvchi bo'lib, u meqnatkash xalq qayotida muqim o'rin tutgan. Baqor kirib kelishini kutib olish bayramlari qadimdan barcha xalqlarda mavjud bo'lgan. Bahor bayramlari insoniyat vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan bayramlardan bo'lib, odamlarning dunyo bo'ylab tarqalishi natijasida ular ham barcha yerlarga yoyilgan va keyinchalik bu ano'analar barcha xalqlarda turli nomlar va qar xil shaklda uyushtirilgan.

O'rta asrlarda "Navro'z" bayrami yanada rivojlanib, ommaviy tus olgan, bu bayram qaqida deyarli barcha o'sha davrning allomalari so'z yuritadi. o'rta asr va keyingi davrlarda "Navro'z"ning xalq turmushi va mao'naviy qayotidagi mavqei,

fayzu tarovati, fazilat va xosiyati qaqida qomusiy bilim egalari Abu Rayqon Beruniy, Firdavsiy, Mahmud qoshqariy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Fayziy-Fayyoziy, Muhammadali Soib, Mirzo Bedil, Kalim Koshoniy, Furqat, Muqimiy, Sadriddin Ayniy va qamza kabilar ajoyib fikr-muloqazalar bildirganlar, go'zal she'rlar bitganlar. "Navro'z"ni Beruniy "Navro'z - olamning boshlanishi" desa, Firdavsiy ""Navro'z"-bayramlar shohi". deydi. Navoiy odamlarga istak bildirib: "qar tuning qadr o'lubon, qar kuning o'lsun navro'z" desa, Sadriddin Ayniy: "Navro'z"da, tabiat jonlanibgina qolmay inson tabiati qam uyqonar -edi" deydi.

Tarixda "Navro'z"ga qarshi shaxslar qam kam emas edi. Bu bayram eng avvalo bosqinchilarga qo'l kelmas edi. Bu hodisa arab istilosidan so'ng yaqqol namoyon bo'ldi. Islom arboblari bu bayramni taqiqlashga ko'p uringanlar. "Navro'z" ularning diniga, siyosatiga, qonun-qoidalariga nomuvofiq emasligini bilsalar qam, bu bayramda odamlarning ozodlik sari ruqan birlashishlari mumkinligidan qo'rqishar edi. SHuning uchun "Navro'z" istilochilar saroylarida, amaldorlar va din aqli davralarida rasmiy bayram qisoblanmagan. Lekin bu tazyiqqa qaramay "Navro'z" xalq orasida nishonlana bergan. Bundan foydalangan ayrim podshohlar va amirlar keyingi asrlarda o'zini xalqparvar qilib ko'rsatish - maqsadida "Navro'z"ni tashkil qilishga bel boqlaganlar. S. Ayniy XIX asr Buxoroda uyushtirilgan bunday "Navro'z" qaqida quyidagilarni yozgan: "Amir Muzaffar urushda (Rossiya bilan bo'lgan) yengilgandan so'ng, xalq oldida obro'siz bo'lib qolgan, ayniqsa urushda bo'shab qolgan xazinasini to'ldirmoqchi bo'lib, har bir yerda "chavqiy" (umumiy bazm) uyushtirib, odamlarni uning tomoshasiga band qilar, shu yo'l bilan xalq ommasining diqqatini o'zining nojo'ya ishlaridan chetga tortar, yoki o'z kirdikorlarini xaspo'shlardi". O'rta asrlarda hozirgi O'zbekiston territoriyasining turli joylarida "Navro'z" o'ziga xos usullarda uyushtiriladigan bo'ldi. Uni nishonlash vaqti 3 kundan tortib, to dalalarda ekin-tekin boshlanguncha davom etgan. "Navro'z" odatda bozor qoshidagi maxsus maydonlarda va ko'proq shahar chekkalaridagi maxsus saylgoqlarda uyushtirilgan. "Navro'z" kunlari eng katta bozorda savdo-sotiqalar tashkil qilingan va o'sha kuni eng shirin taomlar tayyorlangan. hovli-joylarni tozalash, ko'kat va gullar ekish, ota-ona, yaqin yorudostlarni ziyorat etish, marqumlarning qabrini ziyorat qilish kabi odatlar "Navro'z" bayramining tarkibiy qismiga aylangan."Navro'z" ko'p joylarda dala ishlari boshlangunga qadar nishonlangan. Bayram so'nggida dehqonlar o'z ish qurollarini tayyorlab, xo'kizlarni yem bilan boqib, uning shoqi bilan bo'ynini moylab, dala tomon yo'l olishgan. Biroq ko'klam tantanalari arafasida yoki ulardan keyin, ya'ni to meqnat mavsumi kirgunga qadar qam baqor bilan boqliq bo'lgan bkr qancha xalq ano'analari o'tkazilib turilgan.

Bahorning boshlarida bu faslning "shohona" taomi - sumalakka baqishlangan sayl o'zbek xalqining eng yaxshi ano'analariidan sanalgan. Bahorda dehqonlar qayotndagi eng muqim voqea - bu yangi meqnag mavsumiga kirishishdir. SHu boisdan dehqonlarning yerga uruq qadashlari munosabati bilan o'tkaziladigan maxsus marosimi-tantanalar-i mavjud bo'lgan. Ular turli joylarda turlicha "Dalaga qo'sh chiqarish", "SHox moy", "Ekin sayli", "qo'sh oshi" kabi nomlar bilan-uyushtirilgan. Bahor bayramidan so'ng deqqonlar yangi meqnat

mavsumiga kirishishgan. Lekin toqli rayonlarda bahor boshqa yerlarga qa-raganda birmuncha kech boshlangani sababli bu joylarda yangi meqnat mavsumini sabrsizlik bilan kutishgan. SHu sababli uruq qadash payti yetib kelganda bu daqiqa o'ziga xos bayram qolatini vujudga keltirgan.

O'rta Osiyo xalqlari orasida bahor fasli o'tkaziladigan yana bir tadbir "darvishona" deb nomlangan. Har yili bahor faslida qishloqlarda va shahar mahallalarida 2-3 kishi uyma-uy yurib, pul yoki oziq-ovqat to'plagan, so'ngra biror kishining qovlisida yoki masjidda ovqat (halim) pishirib, butun mahalla baham ko'rishgan. Bu marosim yurtda biror ofat bo'lganda undan xalos bo'lish yoki dehqonchilikda mo'l qosil tilash va boshqa niyatlarda xudoga siqinish, undan go'yo madad so'rash mazmunida o'tkazilgan. Mazkur marosim darvishlar odatiga o'xshab uyma-uy yurib, oziq-ovqat yiqish bilan boqliq bo'lgani uchun Darvishona (darvishlarga o'xshab) deb nom olgan .

O'zbekiston hududidagi bahor fasliga baqishlangan turli marosim va bayramlar orasida tabiatning eng so'lim chechagi - gulga baqishlangan sayllar alohida o'rin tutgan. Xorazm va Buxoroda "qizil gul sayli", Farqona vodiysi, qo'qon va Toshkent atroflarida "Lola sayli", ba'zi togli rayonlarda, jumladan CHust va Denov rayonlarida "Sumbula sanli", yana boshqa joylarda "Boychechak" kabi bayramlar uyushtirilgan. Nurota qir-adirlarida gullar ochilgan maqalda "qizil gul sayli", Farqona vodiysida -"Lola sayli", Samarqandda mevali daraxtlar, behi gullaganda -"Behi guli sayli" ("Sayl guli beqi"), Zarafshon vodiysida "Boychechak gul-gardoni", Buxoroda gullar ochilib, bulbullar sayragan vaqtda - "Gulgardoni bulbulxon" ("Bulbul qo'shiqi") kabi bayram - sayillar uyushtirilgan .

Etnografik va tarixiy adabiyotlarda yil davomida ochiq bemalol yurolmagan xotin-qizlarning gul sayllarida erkin qatnashishi qaqida ma'lumotlar mavjud. Q'adimgi gul sayllarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, qabrlarni ziyorat qilish bu bayramning tarkibiy qismi bo'lgan. Gul sayllari (lola, qizil gul bayramlari)ni q'achon o'tkazilishi tabiatga, ob-havoga boqliq bo'lib, ular gullar qiyqos ochilganda aprel boshidan to may o'rtalarigacha o'tkazilgan. Navro'z bir oygacha nishonlanadigan joylarda esa bu ikki bayram bir-biriga qo'shilib ketgan. SHunday joylarda bahor tantanalari "Navro'z" bilan boshlanib "Gul sayllari" bilan yakunlangan. Keng va go'zal lolazorlar bor joylarda esa "Gul sayllari" yanada tantanalibroq o'tkazilgan va bu baqor bayramlari bir-birini to'ldirib, o'zaro boyitib borgan. O'zbek dehqonlarining qayoti, mehnati va hosilni yiqib olish munosabati bilan o'tkaziladigan bayramlari orasida bizning davrimizgacha kelganlaridan biri "qovun sayli"dir. Inqiobdan ilgari "qovun sayli" deqqonlarning polizlarida qovun-tarvuzlarini yiqishdan boshlanib, bozor maydonlarida qam davom etgan.

Paxta yetishtiradigan dehqonlarning ham xosilni yiqib olganlaridan so'ng nishonlanadigan bayramlari bo'lib, ular "Xirmon to'yi", keyinroq esa "Paxta bayrami"-deb nomlangan. Mo'l hosil etishtirgan yillari paxtakorlar katta ziyofatlar uyushtirishgan, o'yin-kulgi qilishgan, yaxshi ishlaganlarga sovqa-salom berishgan, to'nlar kiydirishgan. Q'ish mavsumidagi bayramlar. qish faslida dehqonlarning

bo'sh vaqti ko'p bo'lishiga qaramay, ammo bu mavsumga ataluvchi bayramlar ancha kam. SHunga qaramay, qish fasli bilan boqliq bo'lgan "Birinchi: kor" ("qor yoqdi", "qor xat") sayli o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan edi. Bular birinchi qorga baqishlangan, o'ziga xos bayram shakllaridir.

Qadimdan birinchi qor yoqqan kun "qor xat" yozish ommaviy tus olgan, dalalarda qor otishlar, o'yin-kulgilar, sovqa-salomlar va mehmondorchilik ziyofatlaridan tashkil topgan qishki xalq bayrami vujudga kelgan. Ilk bor qor yoqib dalalar, qir-adirlar va daraxtlarning oppoq libosga burkanishi o'ziga xos go'zallik yaratgan. Qor yoqishi - yerni yaxshi oziqlanib, uning yaxshi hosildor bo'lishidan dalolat bergan. SHu sababli qor yoqishi kishi-larda ko'tarinki kayfiyatni yaratgan. Xalqimizda "qor yoqdi - don yoqdi", "Er to'ysa, el to'yadi" degan maqollar bejiz yaratilgan emas. O'rta asrlardan qish faslining oxiri yoki erta bahorda o'tkazib kelinayotgan "qurultoy" ham o'zbek yiqin-bayramlari qatoridan o'z o'rnini topgan. qurultoy o'rta asrda vujudga kelib, O'rta Osiyo xalqlarining chorvadorlari, dehqonlari orasida muntazam ulkan yiqilish, majlis-sifatida har yili erta bahorda uyushtirilib, eng yirik bayramlardan biriga aylanib ketgan. qurultoyda mavsum kuni, shuningdek, eng dolzarb masalalar va kelajakdagi rejalar haqida maslahatlashib olingan. o'zaro kelishuv va maslaqatlar tugagach, ommaviy xalq tomoshalari, ot o'yinlari - poyga, uloq ("Ko'pkari") xalq ommaviy sayllari uyushtirilgan.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlanishi o'zbek xalqi hayotiga katta o'zgarishlar olib keldi. CHunonchi, O'rta Osiyo Rossiya davlati tomonidan bosib olingandan so'ng, bu yerga mustamlakachi to'ralarning kolonial siyosati bilan birga "inqilobiy qoyalar" ham yetib keldi. 1904 yil Toshkentda ilk bor revolyusionerlar boshchiligida "Mayovka" uyushtirildi. 1905 yildagi Peterburg "qonli yakshanba" voqeasidan keyin qalok bo'lganlar xotirasiga baqishlangan namoyishlarning kuchayishi natijasida, Turkistondagi Toshkent va boshqa shaqarlarda birinchi may bayrami - chorizmga qarshi ulkan siyosiy tadbir sifatida tashkil etiladigan bo'ldi. CHor samoderjaviesining aqdarilishini o'zbek xalqi ham mamnuniyat bilan kutib oldi. O'zbekistonning shaharlari va ko'pgina qishloqlarida revolyusiya sodir bo'lishi munosabati bilan sayllar uyushtirilib ularga rus grajdanlari ham taklif qilindi.

XX asr boshida o'zbek madaniyati, bayramlari ham inqilobiy o'zgarishlar davrida rivojlandi, o'zgarib bordi. G'oyaviy kurash bir necha siyosiy oqimni vujudga keltirib, ularning har biri kelajakda xalq hayoti, siyosati, iqtisod, madannyat, shu jumladan odat - bayramlar qanday bo'lishini belgilash uchun o'zining afzalliklarini ko'rsatishga urinar edi. Biroq xalq hayoti, madaniyati va bayramlari taqdirini, u yoki bu qoyaviy-siyosiy oqim vakillarining istagi bilan hal qilish qiyin. Ularning qaysisi qay darajada kerakligini xalqning bayramlarga bo'lgan eqtiyoji qal qiladi. Bayramlarning qanday o'zgarishi, boyishi hayot taraqqiyotiga boqliq. "Har bir millatning urf-odatlarini turli davrlarda, turli tarixiy va iqtisodiy sharoitlarda, madaniyatning turli bosqichlarida vujudga keladi. Jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining o'sishiga qarab, ular o'zgarib boradi, ya'ni

ma'lum sharoitning talabiga javob bera olguncha "saqlanadi va aks holda yo'qolib ketadi".

Asrdan-asrga, avloddan-avlodga bebaho meros bo'lib o'tib kelayotgan, turmushga singib ketggn "Navro'z", "Lola sayli", "qovun sayli", "Xirmon to'yi" kabi ano'anaviy bayramning zaminida tabiatni e'zozlash, mehnatni uluqlash bo'lgani uchun qam u yangi zamon talabiga to'la javob bera olar edi. SHu bois ular qarama-qarshiliklar, taqiqlarga uchragan bo'lsa ham xalq orasidan bugunlay yo'qolib ketmadi. CHunki bayramlar masalasi Hamza Hakimzoda Niyoziyning turli janrlardagi asarlarida o'z aksini topgan. SHe'riy ijodida "Ramazon" she'rini, publisistik asarlari orasida "qurbon - bayrami kuni" nomli maqolasini, dramaturgiyasida "Bugun- 8 mart" nomli pesasini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. SHuningdek, uning amaliy faoliyatida ham, bayramlarni uyushtirish muhim o'rin egallagan .

Inqilobning dastlabki vaqtlaridanoq yangi tuzilgan davlat va partiya organlari mahalliy xalq uchun yangi bo'lgan umumproletar bayramlar: 1- May (xalqaro birdamlik kuni), 8 - Mart (xotin-qizlar ozodligi kuni), 7- noyabr (Oktyabr revolyusiyasining qalaba kuni) kabilarni tashkil qilishga katta e'tibor bera boshladi. CHunki bu bayramlar yangi tuzumning afzalliklarini ommaga tushuntirishda muhim vosita edi. SHuning uchun ham partiya va davlat organlari bu bayramlarni ommaviy va qiziqarli qilib uyushtirish maqsadida unga madaniyat, sano'at va adabiyot xodimlarini jalb etishardi hamda o'sha vaqtda markaz bo'lmish Petrograd va Moskvada paydo bo'lgan ilk tajribalardan foydalanishga intilishardi. Natijada ko'pgina joylarda, jumladan Toshkentda qam bayramlarning asosiy qismini tashkil qiladigan yangi shakllar: ommaviy insenirovkalar, teatrlashtirilgan miting - konsertlar, teatrlashtirilgan chiqishlar va karnaval - namoyishlar vujudga keldi. Bayramlarning mazmuni oddiy xalqqa tushunarli bo'lishi uchun ularda ko'plab badiiy - obrazli va ta'sirchan vositalar qo'llanila boshlandi

Sovet hokimiyatining birinchi yillari bayramlar ko'pincha teatrlashtirilgan miting-konsertlar shaklida ham tashkil qilinardi edi. Bu badiiy agitasiyaning muqim turi qisoblanib, uning badiiy - obrazli syujeti notiqalar nutqi va unga ilova shaklida revolyusion qo'shiqlar, she'rlar dramatik lavqalar va hokazolar bilan yanada kuchaytirilardi edi. Inqilobning borishi yillaridan yangi internasional bayramlar hisobiga boyib bordi. 20-yillar oxiri, 30-yillar boshlarida yangi bayramlar "soyasida" xalq bayramlari e'tibordan chetda qola boshladi. Eskilik sarqitlari va dinga qarshi kurashlar jarayonida xalq urf-odat - bayramlarning qaysilari ijobiy va qaysisi salbiy ekanligi to'qrisida o'ylamay, ularning chuqur moqiyatiga etishmasdan, ularga (masalan, "Navro'z"ga) ba'zida ochiqdan-ochiq, ba'zida pinqona kurash olib borildi

Ana shu ko'rsatmalarga amal qilinib 80-yillar o'rtalarida o'zbek xalqi azaldan sevib, ardoqlab kelgan urf-odatlar va marosimlar, bayramlar cheklab qo'yildi, ba'zilarining o'rniga boshqa bayramlar va marosimlar to'qib chiqarildi. Natijada avvallari nishonlanadigan "hosil bayrami", "qovun sayli", "Gul sayli" va

boshqa xalq bayramlari unutib qo'yildi. "Navro'z" bayrami esa avval ta'qiqlandi, so'ng suno'iy tarzda "Navbahor" bayramiga aylantirildi. Xalq qo'llab-quvvatlamagan bu bayram moddiy zaminga ega bo'lmaganligi sababli uzoq yashay olmadi. Xalq bayramlarini ta'qiqlab qo'yilishi 80-yillarning oxiriga kelib aholining ochiqdan-ochiq va haqqoniy noroziligini uyqotadi. Buning zaminida milliy an'analar, marosimlar va bayramlarni xalqqa qaytarish jiddiy masalaga aylandi. Natijada O'zbekiston jumhuriyatida "Xalq bayramlarini tiklash muammolari" yuzasidan ishchi gruppasini tuzilishi qamda bu gruppaga tomonidan qar yili 21 martdan 21 aprelgacha "Insoniylikni va tabiatni e'zozlash oyligida "Navro'z", "Xotira kuni", "Birinchn pushta", "Birinchi ekin", "Don, maysa va suv kuni", bolalar "Boychechak" bayrami, "Lola sayli" va boshqa bayram marosimlarini o'tkazish tavsiya qilinishi xayrli ishlarning debochasi bo'ldi. Xalq marosimlari va bayramlarini tiklash juda murakkab jarayon bo'ldi. CHunki xalq bayramlariga xos shakl va elementlar yo'qolib bordi. Xalq bayramlari kuni uyushtirilgan "Katta tomoshalar", masqarabozlar, qiziqchilar, qo'qirchoqbozlar, dorbozlar, polvonlar ishtirokidagi azaliy xalq tomoshalari, askiyabozliklar, mushoiralar, xalq o'yinlari kabilar noyob qodisaga aylandi. Eng ayanchli qol shu bo'ldiki, shaxsga siqinish va turqunlik yillarida o'zbek xalq bayramlariga xos yaxshi odatlar (bayram oldidan qariyalar, xastalar va nochorlardan xabar olish, savobli-xayrli ishlar qilish, kabilar) unutila bordi. Bu borada shuni qato'iy ta'kidlash kerakki, bayramlar barcha xalqlarda eng yaxshi insoniy odatlar va an'analarni saqlaydigan muhim shakl bo'lgan. SHu sababli xalq marosimlari va bayramlari bilan birga insoniylik an'analari qam yo'qola bordi.

XX asrda an'anaviy o'zbek xalq bayramlari davr sinoviga bardosh berdi, ba'zi vaqtlarda vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tdi, ularning safiga yangi bayramlar qo'shildi, boyidi. O'zbekistonda Sovet hokimiyati yillaridagi bayramlar taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, bir-biri bilan boqliq yaqqol ikki yo'nalishning vujudga kelganini sezish mumkin:

1. An'anaviy xalq progressiv bayramlarini (zamonga mos) taraqqiy ettirish;
2. Xalqaro bayramlarni hayotga tadbiq etish va taraqqiy ettirish.

Birinchi yo'nalishda o'zbek xalqi uchun qadim zamonlardan munosib bo'lgan milliy marosimlar - bayramlar ("Navro'z", "Lola sayli", "qovun sayli" kabilar)ni yangi mazmun bilan rivojlantirish nazarda tutilsa, ikkinchi yo'nalishda esa butun dunyo xalqlarining kurashi va mehnati jarayonida vujudga kelgan bayramlarni (1 May- xalqaro birdamlik kuni, 8 Mart - xalqaro xotin-qizlar kuni, I yanvar - yangi yil, 9 May - qalaba kuni, 7 noyabr - Oktyabr revolyusiyasi kuni kabilarni) o'zbek xalqi qayotida milliy va maqalliy xususiyatlarini qisobga olib tashkil qilish ko'zda tutildi. Undagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy soqalarning taraqqiy etishi bayramlar rivojiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, zamon talabiga muvofiq yangi-yangi bayramlar vujudga keldi. SHuningdek, o'zbek xalqi ijtimoiy-madaniy qayotining o'zgarishi va yangi soqalar paydo bo'lishi natijasida

mehnat, tabiat, madaniyat, sport, oilaviy-shaxsiy bayramlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Birinchidan, an'anaviy o'zbek xalq an'analari qatoriga o'lkamiz hayotiga mos, milliy va mahalliy xususiyatga ega bo'lgan yangi bayramlar qo'shilgan. Masalan, bunga "Tabiat bayrami" ("Ona yer sahovati"), "qishloq bayramlari", "Ko'cha bayramlari", "Mahalla bayramlari", "qariyalar bayrami", "Palov va obinon bayramlari", "Tabassum sayli", "Do'stlik karnavali", "Sport bayrami" kabilarni kiritish mumkin. Bu bayramlarning ko'pi O'zbekiston sharoitida vujudga kelib, zamonaviy milliy bayramlar sifatida shakllangan.

Respublika rahbarligiga kelgan I.A.Karimov kishilarning ma'naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o'zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an'analari va bayramlarini tiklashga katta e'tibor berdi. Bu o'rinda xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish "Navro'z" bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. Ma'lumki, O'zbekistonda Prezident tashabbusi bilan "Navro'z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish borasida bir qator tadbirlar ko'rildi. 1991 yildan boshlab mamlakatda Prezident Farmoniga ko'ra, 21 mart - Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

Har bir jamoa, muassasada nishonlanadigan bunday bayramlar, kishilarda xalqimizning qadimiy an'alariga hurmat, mehnatga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Bundan tashqari ma'naviy hayotdagi yana bir talay, aniqroqi diniy bayramlar, qayit kunlarining respublikada umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ham ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishidir.

II.BOB. MILLIY QADRIYATLAR MILLIY G'OYANING MA'NAVIY NEGIZI

2.1. Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi

Ma'lumki, har bir millat tarixan dinlarning birortasi ta'sirida bo'ladi, unga imon keltiradi, e'tiqod (ixlos) qiladi. Jahon dinlari o'z mohiyati jihatidan baynalminal xususiyatga ega bo'lsa-da, ammo ular milliy qadriyatlarni saqlovchi, e'zozlovchi va rivojlantiruvchi ma'naviy vosita sifatida ham maydonga chiqadilar. SHuning uchun ko'pincha millat diniy shiorlar ostida o'z mustaqilligi uchun kurashadi. Masalan, 1918-1923 yillarda O'zbekistondagi milliy-ozodlik urushi islom shiorlari va qadriyatlari asosida borgan. CHunki mahalliy aholining ko'pchiligi diniy qadriyatlar orqali milliy qadriyatlarni anglab kelganlar, binobarin, millat sha'nini diniy qadriyatlar orqali himoya qilganlar. Demak, o'sha tarixiy vaziyatda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik uchun kurashga xalq

ommasini safarbar etishda diniy shiorlar qo'l kelgan. Biroq, istiqloqlilik harakatining asosiy mafkurachilari islom aqidaparastlari bo'lgani sababli millat sha'nini himoya qilishda birlik, jipslikka putur yetgan, oqibatda rus bolsheviklari milliy-ozodlik harakati qatnashchilarining oralarini buzishga erishib, osonlikcha tor-mor keltirish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Demak, diniy qadriyatlarining milliy qadriyatlar uyg'unlashuvi jarayoniga konkret (aniq) tarixiy nuqtai nazardan yondashib, baholash va munosabat bildirish lozim. Ba'zi bir tarixiy sharoitda mamlakatda diniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarining uyg'unlashuvi ijtimoiy taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qilsa, boshqa bir mamlakatda va boshqa bir tarixiy sharoitda u taraqqiyot va inson kamoloti zavoli ham bo'lishi mumkin.

Masalan, ijtimoiy ongning diniy va milliy qadriyatlar bilan qorishib ketishi dinlarning siyosiylashuvi uchun g'oyaviy negiz bo'lib, real milliy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan almashinadi. Natijada diniy zaminda millatlararo mojarolar, katta-katta urushlar ham kelib chiqadi. Vahhobiylik, hizbuttahrirchilik g'oyalari arab — musulmon olamida tarqalgan bo'lsa-da, har bir mamlakatda ular go'yoki milliy manfaatlarining himoyachilari sifatida o'zlarini ko'rsatishga harakat qiladilar. Milliy qadriyatlarni tushunmagan, o'z millati sha'nini unutgan ba'zi kimsalar ularga ergashib, o'z millatiga xiyonat qilishgacha borib yetadilar.

Millatlararo va dinlararo munosabatlar insonparvarlik yo'nalishida qaror topish va muomala madaniyatida katta tarixiy tajriba to'plagan o'zbeklarda milliy va diniy bag'rikenglik millat sha'ni uchun kurashning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu hol O'zbekistonda yashayotgan va turli diniy e'tiqodga ega xalqlar, millat va elatlar namoyandalariga qo'lni-qo'lga berib, buyuk istiqbol uchun kurashda yakdil bo'lishlari uchun o'ziga xos shart-sharoit vazifasini o'tamoqda.

Barcha dinlar, jumladan, islom dini qadriyatlarini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlaridan millatlararo totuvlikni ta'minlash yo'lida samarali foydalanish milliy uyg'onish, milliy tiklanish jarayonining muhim tomonidir. Diniy qadriyatlar milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Insonparvarlik, adolatparvarlik, qo'shnichilik, boshqa millat vakillariga hurmat bilan qarash haqidagi diniy qadriyatlarining zamini ijtimoiy hayotning o'zidir. Har qanday qadriyat inson qalbi va ongiga chuqur singishi, uning e'tiqodiga aylanishining muhim shartidir. Din jamiyatdagi ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishga, takomillashtirishga qaratilgan g'oyaviy qarashlardan biridir.

Diniy axloq hamda huquq mohiyati va mezonlarini chuqur o'rganish, ularni hayotga joriy etish komil insonni tarbiyalashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Diniy meros va qadriyatlarning milliy uygʻonish va poklanishga, barcha millat vakillarini teng koʻrishga, shu orqali milliy tiklanishga koʻrsatayotgan ijobiy taʼsiri ham shundadir. SHu bilan birga, diniy qadriyatlarning millatlararo totuvlikni taʼminlab berishdagi ahamiyatini haddan tashqari boʻrttirib yuborish kerak emas. Yurt tinchligi, barqarorlik, millatlararo totuvlikni taʼminlashda diniy gʻoyalarning roli katta boʻlsa-da, u asosiy va yolgʻiz mezon boʻla olmaydi.

Millatlar uchun zarur boʻlgan milliy uygʻonish, ruhiy poklanish diniy anʼanalarga rioya qilishgina emas, balki asosiy dunyoviy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etishga yoʻl izlashdir.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida diniy qadriyatlarni oyoq osti qilish, eʼtiqodga qarab ajratishga qilinayotgan harakatlar turli millat vakillari oʻrtasida kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga sababchi boʻlmoqda.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq ayrim mintaqalardagi fojialardan xulosa chiqargan holda hamda diniy qadriyatlardan tinchlik va barqarorlikni taʼminlash yoʻlida foydalanishga katta eʼtibor berilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda islomdan tashqari yana koʻplab roʻyxatdan oʻtgan 17 ta diniy konfessiya faoliyat koʻrsatmoqda. Ular dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish jarayonida milliy zaminda **mojarolar chiqishiga yoʻl qoʻymaslik uchun ham kurashmoqdalar**. Binobarin, milliy oʻzlikni anglash insoniy yoʻnalishda rivojlanishga munosib hissa qoʻshib, oʻzlari mansub boʻlgan **millat shaʼniga dogʻ tushirmaslikka harakat qilmoqdalar**. Zero, milliy oʻzlikni anglash chinakam baynalmilalchilik his-tuygʻulari ham rivojlangan boʻlishini taqozo etadi. Buyuk millatchilik, buyuk davlatchilik shovinizmi, milliy kalondimogʻlik va diniy mutaassiblikka qarshi kurash jarayonida millat shaʼni-shavkati va shuhrati oshib boradiki, buni aslo unutmaslik zarur.

Oʻzbeklar tarixan boshqa xalqlar, elatlar va millatlar hamda oʻzga diniy eʼtiqod egalari his-tuygʻulariga zoʻr hurmat qilish ruhida tarbiyalangan jahondagi zakovatli millatlar sirasiga kiradilar. Sahovatpeshalik, ochiqkoʻngillik, rahm-shafqatlilik, insonparvarlik, mehmondoʻstlik, rioya-andishalik, izzat-ikromlilik — bular oʻzbek milliy tabiat (mentalitet)ining ajralmas xususiyatlari boʻlib, bu kabi fazilatlar tufayli ular oʻz millati shaʼni uchun kurashib keladilar.

Milliy shaʼn, milliy gʻurur milliy iftixor his-tuygʻulari bilan tutashib ketadi. Oʻzbekistonda tayyorlanadigan mahsulotlar jahon bozorida sevib xarid qilinishidan gʻururlanish, undan iftixorlanish his-tuygʻusiga ega boʻlgan kishilar yomon, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishdan or-nomus qiladilar. Bu bilan millatimiz shaʼniga shaʼn qoʻshgan boʻladilar. Har bir millatning vakili, qanday sohada

bo'lmasin, jahon miqyosida katta yutuqqa erishsa, bu shu millat vakillaridan ular bilan faxrlanishi, mag'rurlanish hislarini hosil qiladi.

O'zbek millati vakillarining koinotga uchishi, millatimiz vakillarining sport sohasida erishayotgan yutuqlari, milliy madaniyatimizning dunyoga tanilib borishi millatimiz shon-shavkatini yanada oshiradi, jahonda shunday zakovatli millat bor ekani amalda namoyon bo'ladi.

Milliy real hayotda uni tashkil etuvchi shaxslardan iborat ekan, o'zga millatlar doirasida o'z millat vakillarining erishgan yutuqlaridan xursand bo'lish, shu millat vakili bo'lgani bilan faxrlanish yoki, aksincha, millatdoshining boshiga og'ir kunlarni xuddi o'zining eng yaqinlarining boshiga tushgan og'ir kunlar kabi ruhiyatining mavjudligi milliy g'oyaning qudratidandir. Bunday holat har bir millat vakili uchun muqaddas qadriyatdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish xalqning madaniy merosi, qadriyatlari, an'alarini tiklash va rivojlantirish asosida amalga oshmoqda. Millatning madaniy merosi turli davrlarda, turlicha imkoniyatlar va ehtiyojlar asosida shakllanadi. Ularni boshqacha sharoitlarga ko'r-ko'rona tatbiq etishga urunish noto'g'ri. Qadriyat darajasiga ko'tarilib, hozir ham amaliy ahamiyat kasb etgan merosgina milliy uyg'onishga, millatlararo totuvlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Yangi davr xususiyatlarini o'zida to'la mujassamlashtirib, boyib, rivojlanib borayotgan merosgina va qadriyatlar- gina hayotga singadi va rivojlanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlarni bir-biriga yanada jipslashtirishga, ular o'rtasidagi totuvlik va inoqlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan milliy, diniy marosimlar, urf-odatlar va an'analar tiklanmoqda hamda rivojlanmoqda.

Mustaqillik yillarida milliy munosabatlarni tashkil etishdagi olib borilayotgan ijobiy ishlar har bir millat vakili uchun o'z millat sha'n-shavkatini oshirish, uning shon-shuhratini ko'tarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'z millatining sha'n-shavkatini o'ylamaydigan, uni yuksaltirishni istamagan, uning uchun harakat qilmaydigan millat bo'lmasa kerak.

Sha'n-shavkat tashqi ta'sirlar natijasida hosil bo'ladigan ichki his-tuyg'u va ruhning parvozidir. Bu his-tuyg'uning rivojlanishi va milliy ruhning parvozi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, balki tarixiy xotiradan yaxshi xabardor individlar va shaxslarda u kuchli ravishda namoyon bo'ladi. Uni o'rganish, maxsus ilmiy-tadqiqot ob'ektiga aylantirish galdagi vazifadir. Chunki millat sha'ni masalasi

hali-hozir jiddiy ilmiy muloqotga kirganicha yo'q. Bu falsafiy tushunchani O'zbekiston fuqarolari to'g'ri anglab olishlari hamda ilmiy talqin etishlari uchun milliy mafkuraning barcha vositalaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida millat sha'ni nima, uni kimlar himoya qila oladi, degan savollarga aniq-ravshan javoblar berish, shu asosda o'z millati sha'ni-shavkati uchun fidoiy insonlar shaxsini shakllantirish muhim vazifadir.

Millat sha'nini ko'tarishda bugungi kunda ulg'ayib, voyaga yetib borayotgan yoshlarning alohida o'z o'rni bor. Zero, O'zbekistonning kelajagi bugungi kun yoshlarining qo'lidadir. O'zbekiston yoshlari turli sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan yurtimizni dunyoga tanitmoqdalar va millatimiz sha'nini ulug'lashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Yurtimizning ko'plab iqtidorli yoshlari dunyoning taniqli universitetlarida tahsil olib, o'z qobiliyatlarini namoyish etib kelganligi bejiz emas.

Yurtboshimiz yoshlarimiz erishayotgan yutuqlardan, millat sha'nini ko'tarishga qo'shayotgan hissalaridan faxrlanib, sizlarni o'z farzandlarim- dek ko'raman, sizlar erishayotgan yutuqlar bilan faxrlanaman, degan gaplarni doimo ta'kidlab kelmokdalar.

2010 yilning mamlakatimizda Barkamol avlod yili deb e'lon qilinishi millat sha'nini ko'tarishda, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda yoshlarga yuksak ishonchlar bildirilayotganligidan dalolat beradi.

Prezident yoshlarga ishonch bildirib, shunday deydilar: "Barchamizga ma'lumki, har kaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib - o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliy orzu intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi".

Demak, milliy istiqlol g'oyasi quyidagi umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadi va o'ziga singdirib oladi:

1. Qonun ustuvorligi.
2. Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash.
3. Turli millat vakillarini, ularning madaniyatini va qadriyatlarini hurmat qilish, ular bilan hamkorlik qilish, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik.
4. Dinlararo bag'rikenglik.
5. Dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik.
6. Turli xalqlarning ilg'or tajribasini, insoniyat madaniyati yutuqlarini o'rganish va egallab olish.

7. Inson - eng oliy qadriyat.
8. Vatan - eng oliy qadriyat va h.k.

2.2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi

Jahon tsivilizatsiyasidan ajralgan, o'zining alohida tarixiga ega millat bo'lgan emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan chirmashib, taraqqiy etib kelgan. SHuning uchun ham har bir millat o'z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda taraqqiy etishi lozim.

Butunjahon iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixiy taqdirlarining o'zaro bog'lanishi, chirmashuvi, bir-birini to'ldirishi asosida amalga oshadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan o'zaro o'xshash xususiyatlarga ega bo'lmaganda, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lmaganda, u ulardan o'rganmagan va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, u allaqachon tanazzulga uchragan bo'lar edi. Bunday millat jahon tsivilizatsiyasining samaralaridan foydalana olmagan bo'lardi.

Xalqlarning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki **umuminsoniy xususiyatlarga** ega ekanligida, jahon tsivilizatsiyasiga qo'shadigan hissasidadir. Ayni choqda boshqa bir narsani ham e'tibordan soqit kilmaslik kerak. Milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda hal etishga intilish, milliy manfaatlar bahonasida milliy xudbinlikni, tekinxo'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning manfaati va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajratilmagan holda o'rganilishi kerak.

Millatlararo totuvlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi va bog'liqligini chuqur anglash natijasi hamdir. Millatlarning manfaati, qadriyatlari asrlar mobaynida o'zaro bog'liqlik holda rivojlantirib kelingan. Mintaqamizdagi bu boradagi yuksalish davrlari ushbu bog'liqlik asosida amalga oshirilgan. Turli millatlar o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohadagi aloqalar hozir ham milliy uyg'onishga, millatlararo totuvlikni ta'minlash jarayoniga ijobiy ta'sir qilmoqda.

Bizning davrimizda davlatlararo munosabatlarda umuminsoniy kadriyatlar axloq va ma'naviyatning ustunligini e'tirof etish, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy

tuzumli mamlakatlar o'zaro hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil etuvchi asosiy omil sifatida qaror toptirish tamoyili tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda.

Buning zarurligini ziddiyatli va ayni vaqtda yaxlit holda bog'liq bo'lgan butun dunyoda olib boriladigan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda o'z mazmuni bilan, shu jumladan, barcha xalqlar umum tamaddudining uzviy qismi sifatida tushunish kerak bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlarni nazar-pisand kilmaslik — jahon hamjamiyatiga, uning ma'naviy sog'lomligiga tuzatib bo'lmas darajada ziyon-zahmat yetkazish demakdir.

Mustaqillik qo'shni mamlakatlar, turli millat vakillari bilan barcha sohalardagi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratdi. Asosiy vazifa bu imkoniyatlardan oqiloni foydalana bilishdir. Umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyatlar rivojiga katta hissa qo'shsa ham, aslo uning o'rnini egallay olmaydi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'lanishlar bugungi kunda yangi mazmun kasb etmoqda, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada kishilar o'rtasidagi birlik va birdamlik, tenglik va teng huquqlilik, insonparvarlik, rahm-shavqat, mehr-muruvvat, adolatparvarlik, baynalmilallik singari qadriyatlarning o'ri ayniqsa kattadir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va xolisona o'rganish millatlararo totuvlikni ta'minlash jarayonini tezlashtiradi.

Bir vaqtning o'zida faqat milliy qadriyatlar manfaatlari bilangina bir tomonlama, ya'ni sinfiy xarakterda cheklanib qolsak, materialistik dialektika metodologiyasiga zid ravishda ish tutgan bo'lamiz. Ayni bir vaqtda dialektikani e'tibordan soqit qilish ba'zi tadqiqotchilarga pand berdi, yagonalik, alohidalik va umumiylik kategoriyalari asosida baho berishda bir tomondan boshqa tomonga sapchishga, haddan oshishlarga imkon yaratib berdi.

Ong odatda turmushdan orqada qoladi. Ongning bir qismi bo'lmish tafakkur esa doimo ham voqelikning rivojlanishi bilan bir safda borishga ulguravermaydi. Bunday hol tafakkurni aqidaparastlikning qolipiga joylashtirishga harakat qilinganda yuz beradi. Ayni shu sababli umuminsoniy va milliy jihatlarning dialektikasi to'g'risidagi ta'limot namoyandalarining ko'pchiligi nohaq unutilgan, noto'g'ri baholangan yoki ongli ravishda tilga olinmay kelingan. Endilikda bu jihatlarning o'zaro aloqadorligini ham huquqiy, ham insoniy tomondan tiklash zarur. Bu avvalo, mamlakatimizning insonparvarlik mohiyatini, umumjahon xalqlarining o'zaro foydali manfaatlarini ifodalagan bo'lur edi.

SHuning uchun ham umuminsoniy va milliy manfaatlar, qolaversa qadriyatlarni o'tib bo'lmas to'siqlar bilan ajratmasdan, balki ularni tadqiq etib, ular o'rtasidagi har tomonlama aloqadorlik va bivositaliklar uyg'unligini aniqlashimiz va bundan ilmiy xulosa chiqarishimiz lozim.

Jahon hamjamiyati o'z mavjudligiga nisbatan juda ulkan xavf-xatarga, tashvish va muammolarga yuzma-yuz turib qolgan hozirgi paytda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yotgan manfaatlariga zamon talablaridan kelib chiqib, to'g'ri yondashuv, ayniqsa zarurdir. Iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy va shunga o'xshash boshqa omillar, harbiy sohaning, aloqa va axborot yig'ishning rivojlanishi mamlakatlar va xalqlarni tobora ko'proq yaqinlashtir- moqda. O'zaro bog'liqlik bunday o'sib borayotgan shart-sharoitda umuminsoniy muammolar ayrim sinflar, iqtisodiy sistemalar, millatlar, madaniyatlar, dinlar va mafkuralar doirasidan chetga chiqmoqda. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, mamlakatimizning hozirgi tafakkuri va uning siyosati o'zida sinfiy, milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlarni birga qo'shishi, **birlashtirishi** kerak.

Mamlakatning turli sohalaridagi rivoji ma'lum xalq va millat faoliyati tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bir tomondan, uning milliylik xususiyatiga egadir. Ikkinchi tomondan esa, jamiyatdan ajralgan holda, alohida millat, xalqlarning mavjud bo'la olmasligi sababli, butun insoniyatga xos bo'lgan umuminsoniy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlashda milliylik va umuminsoniylik jihatlari o'zaro uyg'unlikda, bir-birini to'ldirib, boyitib boraveradi. Sobiq sovet tuzumi davrida millatlarga xos bo'lgan xususiyatlarni kamsitish, ularni sotsializm qurish maqsadlariga bo'ysundirish asosiy yo'nalish bo'lib kelgan edi. Baynalmilallik bayrog'i ostida bir millatning milliy qadriyatlariga sajda qilish, ulardan o'mak olish va ular yo'lidan borish targ'ib etildi, bundan chekinganlar qoralandi. Sobiq sovet tuzumiga barham berilgandan so'nggina har bir xalq o'zining milliy qadriyatlaridan bahramand bo'lish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda yashayotgan millatlar madaniyati taraqqiyotiga keng yo'l ochib berildi. Toptalgan, kamsitilgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar qayta tiklandi.

Milliy hayot va millatning o'tmishi, kelajagi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari, an'analari, tili, u yashayotgan hudud va boshqa omillar bilan uzviy bog'langandir. Ular turli xil shakllarda, bir-birlari bilan uzviy aloqada namoyon bo'lib, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimida, avvalambor, til, qon-qardoshlik, madaniy-

ma'naviy yaqinlik va shu singarilar yagona asosga ega ekanligi barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar qadriyatlar tizimida o'z o'rnini va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolish xususiyatiga ham ega.

Har bir millatda va shu millatning milliy g'ururiga ega bo'lgan a'zosida millatga xos bo'lgan qadr-qimmatni saqlash, hurmat qilish, e'zozlash, boyitish va rivojlantirish tuyg'usi bo'ladi. Millatlarning o'zini-o'zi anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi. Milliy qadriyatlarning takomillashib borishi milliy mahdudlikka, milliy xudbinlikka, o'z millati manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, boshqa millatlar va xalqlarning manfaatlari bilan hisoblashmaslikka olib kelmasligi kerak.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko'ra, faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib, turmush jarayonida yangilanib, rivojlanib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyati, keng miqyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlar, elatlarning o'tmishidagi, hozirgi va kelajak taraqqiyoti bilan chambarchas aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon tsivilizatsiyasining yaxlit bir butunligini ifodalaganligi bilan milliy qadriyatlardan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar xilma-xil bo'lib, milliy nizolarning oldini olish, millatlararo totuvlikni ta'minlash muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniylik alohida millat qadriyatlarini butun olamga targ'ib qilish yo'li bilan emas, balki, barcha millat va elatlarning qadriyatlarini avaylab-asrash, uyg'unlashtirish, hurmat qilish va jahondagi milliy xilma-xillikning umumbashariy xilma-xillik bilan uzviyligini anglash orqali boyib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar, xalqlarning maqsad intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi va shu jihati bilan milliy qadriyatdan farq qiladi.

Turli ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi davlatlar o'z milliy qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, bugungi kunda ham mavjud bo'lgan millatchilik singari illatlarga qarshi turishi va bunyodkorlikka xizmat qilishi kerak.

Hozirgi umumbashariy muammolar mana shu masalani umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib hal qilinishiga hammadan ko'ra ko'proq majbur etmoqda.

Millatlararo totuvlikni ta'minlash, millatidan qat'i nazar barcha insonlarning omon qolishi, ularning huquq va erkinliklari, umumjahon iqtisodiy mexanizmining

yangi bosqichi, har tomonlama hamkorlik va qo'shnichilikning zaruriyatlari, ekologik, energetik muammolar va umuminsoniy boy tarixiy meros, insonlarga xos umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi, uning ziddiyatlari mohiyatining o'zgarishi ularning asosiy, o'ziga xos xususiyatlaridir.

Umumjahon tsivilizatsiyasi jarayonida barcha millatlar va yangi milliy hosilalarning roli oshgan hozirgi kunda xalqaro munosabatlar o'zining milliy xarakterini yo'qotmagan holda o'zini borgan sari ko'proq darajada ayni xalqlar orasidagi munosabat sifatida ro'yobga chiqarmoqda. Bunday vaziyatda «tashqi» (jahon miqyosi) va «ichki» (milliy) jihatlarni turli mustaqil sohalar bo'yicha ajratish o'rinli ekani dargumon bo'lsa kerak. Zero, «jahon miqyosidagi» jihat «milliy» jihatga nisbatan olganda — mahalliy (sinfiy, sotsial, milliy) muammolarga faqat arziyas tuzatishlar kirituvchi qandaydir «tashqi omil» emas, balki keng yoyiluvchi ichki reallikdir. Ayrim davlatlar va millatlar shakllanayotgan jahonshumul yaxlitlik elementlar sifatidagina hozirgi o'zaro bog'liq dunyoning mustahkam qismlariga aylanadi va chinakamiga tushunilishi mumkin.

2.3. Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko'rinishlari

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, butungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mexdati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi. Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega.

O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urfodat va marosimlarni tahlil kilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Misol uchun, «Avesto»ni olaylik. Bundan 2700 yil muqaddam o'n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bo'nga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi kiyinish, ovqatlanish, to'yxashamlarni o'tkazish va boshqalardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Insoniyatning oxirgi yarim ming yillik umri davomida jahon bozori paydo bo'ldi, iqtisodiyot va madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchaydi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'raydi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. SHularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uygotish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko'rinishlari Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, osoriatiqalar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ilmfan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san'at va milliy adabiyot;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;
- urfodat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'limtarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *tarixiy meros* va *tariosiy xotira* muhim o'rin tutadi. Ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko'tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

O'zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. *Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, kadimiy ko'lyozmalar* — milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrliligi va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylabasrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.

Ilm-fan va uning yutuchushri — milliy yoki hududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutushga aylantiradi.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma'naviyati, ayniqsa, *san'at va adabiyot* rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *axloqiy sifat, diniy qadriyatlar* munosib o'rin egallaydi va milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

SHularni hisobga olib, prezident Islom Karimov «TurkistonPress» agentligi muxbirining savollariga javob berar ekan, madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddanavlodga yetkazishda dinning beqiyos xizmati borligini uqtiradi: «*Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar es&yotimizga shu k&dar singib k<gtganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'kotamiz*»¹, deb ta'kidlaydi.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, *urfodat va marosimlarda* to'laqonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan royallarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, ularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume'tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o'zo'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar — milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya — millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir.

Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsadmuddaolarini, orzuumidi va ishonche'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfa

at va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni

tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi, Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyidagi milliy xususiyatlar qayd etilgan:

- xalqimiz hayotida qadimqadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, elyurt tushunchalarining muqaddasligi;
- otaona, mahallako'y, umuman, jamoatga yuksak hurmate'tibor;
- millatyushg o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga — hurmat, kichikka — izzat;
- mehrmuhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi — ayol zotiga ehtirom;
- sabrbardosh va mehnatsevarlik;
- halollik mehroqibat va hokazo»¹.

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehroqibat, muruvvat, andisha, ornomus, sharmuhayo, iboiffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bagrikenglik mehmondo'stlik oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligani ta'kidlash lozim.

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsada, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi.

XULOSA

Hozirgi umumbashariy muammolar mana shu masalani umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib hal qilinishiga hammadan ko'ra ko'proq majbur etmoqda.

Millatlararo totuvlikni ta'minlash, millatidan qat'i nazar barcha insonlarning omon qolishi, ularning huquq va erkinliklari, umumjahon iqtisodiy mexanizmining yangi bosqichi, har tomonlama hamkorlik va qo'shnichilikning zaruriyatlari, ekologik, energetik muammolar va umuminsoniy boy tarixiy meros, insonlarga xos umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi, uning ziddiyatlari mohiyatining o'zgarishi ularning asosiy, o'ziga xos xususiyatlaridir.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar — milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya — millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir.

Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsadmuddaolarini, orzuumidi va ishonche'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfa

at va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi, Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyidagi milliy xususiyatlar qayd etilgan:

- xalqimiz hayotida qadimqadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, elyurt tushunchalarining muqaddasligi;
- otaona, mahallako'y, umuman, jamoatga yuksak hurmate'tibor;
- millatyushg o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga — hurmat, kichikka — izzat;
- mehrmuhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi — ayol zotiga ehtirom;

- sabrbardosh va mehnatsevarlik;
- halollik mehroqibat va hokazo»¹.

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehroqibat, muruvvat, andisha, ornomus, sharmuhayo, iboiffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bagrikenglik mehmondo'stlik oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligani ta'kidlash lozim.

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsada, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat .T.: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: Ma'naviyat. 1998 y.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: Ma'naviyat, 1998 y.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. Ma'naviyat va madaniyat tarixi. Farg'ona. 1998 y.
5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T. 1996 y.
6. Ashirov A. Atadjanov SH. Etnologiya. T. 2007 y.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T. 2007 y.
8. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik. Farg'ona. 1998 y.
9. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . Etnomadaniyat.. T.: Adolat. 2003 y.
10. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
11. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
12. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar, 4-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
13. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: «O'zbekiston», 2000.
14. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. –T.: «O'zbekiston», 2001.
15. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: «O'zbekiston», 2002.
16. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Asarlar, 11-jild. –T.: «O'zbekiston», 2003.
17. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.. Asarlar, 12-jild. –T.: «O'zbekiston», 2004.
18. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar, 13-jild. –T.: «O'zbekiston», 2005.
19. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008.